

2023- yil yanvar-fevral oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(75) 221-44-28



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryoda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **8 2990,4 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8 3468,8 ming AQSH** dollariga yoki **0,6 %** ga kamaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **8 2990,4** **-0,6 %**  
(2022- y.: **8 3468,8**)



### Saldo

2023- y.: **23358,2**  
(2022 y.: **7221,2**)



### Eksport

2023- y.: **5 3174,3** **+17,3 %**  
(2022- y.: **4 5345,0**)



Tovarlar: **52528,4**



Xizmatlar: **645,9**



### Import

2023- y.: **2 9816,1** **-21,8 %**  
(2022- y.: **3 8123,8**)



Tovarlar: **29517,1**



Xizmatlar: **299,0**






**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **5 3174,3** ming AQSH dollariga (**17,3 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **2 9816,1** ming AQSH dollariga (**21,8 %** ga kamaydi).

Hisobot davrida **2 3358,2** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)

| Turkiya   | Rossiya Federatsiyasi  | XXR  | BAA   | Qozog‘iston   |
|---|--|--|---|---|
| TSA – 19545,5   | TSA – 12443,4  | TSA – 8564,6   | TSA – 5868,0  | TSA – 5917,7  |
| Eksport: 15421,9<br>Import: 4123,6  | Eksport: 8812,5<br>Import: 3630,9  | Eksport: 1031,0<br>Import: 7533,6  | Eksport: 5868,0<br>Import: 0,0  | Eksport: 1753,7<br>Import: 4164,0   |
|  23,6 % |  15,0 % |  10,3 % |  7,1 % |  7,1 % |

| Polsha   | Hindiston   | Qirg‘iz Respublikasi  | Latviya   | Pokiston  |
|--|---|---|---|---|
| TSA – 3660,3   | TSA – 3464,1  | TSA – 3276,7  | TSA – 2588,2  | TSA – 2328,1  |
| Eksport: 3474,4<br>Import: 185,9   | Eksport: 3043,1<br>Import: 421,0  | Eksport: 3017,4<br>Import: 259,3  | Eksport: 4,9<br>Import: 2583,3  | Eksport: 1872,2<br>Import: 455,9  |
|  4,4 % |  4,2 % |  3,9 % |  3,1 % |  2,8 % |

Qashqadaryo viloyati jahonning **48** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**23,6** %), Rossiya Federatsiyasida (**15,0** %), XXRda (**10,3** %), BAAda (**7,1** %), Qozog'istonda (**7,1** %), Polshada (**4,4** %) va Hindistonda (**4,2** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 19545,5



Rossiya Federatsiyasi – 12443,4



BAA – 5868,0






Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **13** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **7** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)

| Davlatlar   | 2021- y.       | 2022- y.       | 2023- y.       |
|---|----------------|----------------|----------------|
| <b>Turkiya</b>  | <b>12287,4</b> | <b>22045,4</b> | <b>19545,5</b> |
|  <i>Eksport</i>  | 7627,5         | 15957,1        | 15421,9        |
| <i>Import</i>   | 4659,9         | 6088,3         | 4123,6         |
| <b>Rossiya Federatsiyasi</b>  | <b>6188,2</b>  | <b>10883,7</b> | <b>12443,4</b> |
|  <i>Eksport</i>   | 2641,2         | 7209,7         | 8812,5         |
| <i>Import</i>   | 3547,0         | 3674,0         | 3630,9         |
| <b>XXR</b>  | <b>10948,9</b> | <b>16499,2</b> | <b>8564,6</b>  |
|  <i>Eksport</i>   | 2207,8         | 3690,8         | 1031,0         |
| <i>Import</i>   | 8741,1         | 12808,4        | 7533,6         |
| <b>BAA</b>  | <b>90,6</b>    | <b>344,1</b>   | <b>5868,0</b>  |
|  <i>Eksport</i>   | 39,3           | 297,7          | 5868,0         |
| <i>Import</i>   | 51,3           | 46,4           | 0,0            |
| <b>Qozog'iston</b>  | <b>4952,6</b>  | <b>3728,0</b>  | <b>5917,7</b>  |
|  <i>Eksport</i> | 1879,7         | 1638,0         | 1753,7         |
| <i>Import</i>   | 3072,9         | 2090,0         | 4164,0         |
| <b>Polsha</b>   | <b>276,1</b>   | <b>2135,4</b>  | <b>3660,3</b>  |
|  <i>Eksport</i> | 66,0           | 1482,6         | 3474,4         |
| <i>Import</i>   | 210,1          | 652,8          | 185,9          |
| <b>Hindiston</b>  | <b>743,9</b>   | <b>1573,5</b>  | <b>3464,1</b>  |
|  <i>Eksport</i> | 642,5          | 983,6          | 3043,1         |
| <i>Import</i>   | 101,4          | 589,9          | 421,0          |
| <b>Qirg'iz Respublikasi</b>   | <b>1250,1</b>  | <b>1818,8</b>  | <b>3276,7</b>  |
|  <i>Eksport</i> | 1184,6         | 1583,3         | 3017,4         |
| <i>Import</i>   | 65,5           | 235,5          | 259,3          |
| <b>Latviya</b>  | <b>651,2</b>   | -              | <b>2588,2</b>  |
|  <i>Eksport</i> | 0,0            | -              | 4,9            |
| <i>Import</i>   | 651,2          | -              | 2583,3         |
| <b>Pokiston</b>   | <b>921,6</b>   | <b>1856,5</b>  | <b>2328,1</b>  |
|  <i>Eksport</i> | 905,1          | 1772,6         | 1872,2         |
| <i>Import</i>   | 16,5           | 83,9           | 455,9          |


|  | Davlatlar                      | 2021- y.      | 2022- y.      | 2023- y.      |
|--|--------------------------------|---------------|---------------|---------------|
|  | <b>Misir</b>                   | <b>830,6</b>  | <b>486,9</b>  | <b>2003,2</b> |
|    | <i>Eksport</i>                 | 830,6         | 486,9         | 2002,6        |
|  | <i>Import</i>                  | 0,0           | 0,0           | 0,6           |
|  | <b>Vetnam</b>                  | <b>-</b>      | <b>576,7</b>  | <b>1846,8</b> |
|    | <i>Eksport</i>                 | -             | 576,6         | 1785,0        |
|  | <i>Import</i>                  | -             | 0,1           | 61,8          |
|  | <b>Koreya Respublikasi</b>     | <b>7,4</b>    | <b>302,4</b>  | <b>1436,6</b> |
|   | <i>Eksport</i>                 | 1,4           | 1,8           | 1,6           |
|  | <i>Import</i>                  | 6,0           | 300,6         | 1435,0        |
|  | <b>Eron Islom Respublikasi</b> | <b>2244,2</b> | <b>4268,2</b> | <b>1343,5</b> |
|    | <i>Eksport</i>                 | 1726,4        | 2743,7        | 1231,5        |
|  | <i>Import</i>                  | 517,8         | 1524,5        | 112,0         |
|  | <b>Italiya</b>                 | <b>843,6</b>  | <b>923,3</b>  | <b>881,1</b>  |
|  | <i>Eksport</i>                 | 0,0           | 198,2         | 0,0           |
|  | <i>Import</i>                  | 843,6         | 725,1         | 881,1         |
|  | <b>Marokash</b>                | <b>-</b>      | <b>-</b>      | <b>899,6</b>  |
|  | <i>Eksport</i>                 | -             | -             | 899,6         |
|  | <i>Import</i>                  | -             | -             | 0,0           |
|  | <b>Avg'oniston</b>             | <b>3280,4</b> | <b>2710,4</b> | <b>850,4</b>  |
|  | <i>Eksport</i>                 | 3280,4        | 2610,4        | 850,4         |
|  | <i>Import</i>                  | -             | 100,0         | 0,0           |
|  | <b>Belarus Respublikasi</b>    | <b>108,2</b>  | <b>282,0</b>  | <b>808,1</b>  |
|  | <i>Eksport</i>                 | 62,5          | 264,8         | 69,6          |
|  | <i>Import</i>                  | 45,7          | 17,2          | 738,5         |
|  | <b>Germaniya</b>               | <b>1327,2</b> | <b>1745,9</b> | <b>692,3</b>  |
|  | <i>Eksport</i>                 | 0,0           | 959,6         | 61,8          |
|  | <i>Import</i>                  | 1327,2        | 786,4         | 630,5         |
|  | <b>Ozarbayjon</b>              | <b>-</b>      | <b>678,8</b>  | <b>543,2</b>  |
|  | <i>Eksport</i>                 | -             | 678,8         | 434,8         |
|  | <i>Import</i>                  | -             | 0,0           | 108,4         |



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-fevral oylari)\*

|                             | Hajm ming AQSH dollari | O'sish sur'ati, % da | Ulushi, % da |
|-----------------------------|------------------------|----------------------|--------------|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>82990,4</b>         | <b>99,4</b>          | <b>100,0</b> |
| <i>hududlar:</i>            |                        |                      |              |
| G'uzor                      | 4739,0                 | 137,2                | 5,7          |
| Dehqonobod                  | 5426,3                 | 3,2 m.               | 6,5          |
| Qamashi                     | 1922,0                 | 41,7                 | 2,3          |
| Qarshi                      | 12782,8                | 50,3                 | 15,4         |
| Koson                       | 3342,2                 | 44,6                 | 4,0          |
| Kitob                       | 3510,0                 | 38,4                 | 4,2          |
| Mirishkor                   | 1965,6                 | 2,5 m.               | 2,4          |
| Muborak                     | 1443,0                 | 82,3                 | 1,8          |
| Nishon                      | 8597,0                 | 8,5 m.               | 10,4         |
| Kasbi                       | 17167,8                | 2,2 m.               | 20,7         |
| Ko'kdala                    | 638,0                  | -                    | 0,8          |
| Chiroqchi                   | 2468,2                 | 2,5 m.               | 3,0          |
| Shahrisabz                  | 273,4                  | 16,6                 | 0,3          |
| Yakkabog'                   | 6421,3                 | 2,4 m.               | 7,7          |
| Qarshi sh.                  | 11264,9                | 89,4                 | 13,6         |
| Shahrisabz sh.              | 1019,3                 | 48,9                 | 1,2          |
| Boshqalar                   | 9,6                    | 4,7                  | 0,0          |

Eng yuqori hajm, ming AQSH dollari



Eng quyi hajm, ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **20,7 %** ulush bilan **17167,8** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz tumani **0,3 %** ulush bilan **273,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **28,8** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,0** % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-fevral oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **4,0** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **71,2** % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, **23944,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **14850,7** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **9093,5** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 12443,4  
Eksport – 8812,5  
Import – 3630,9



### Qozog'iston

TSA – 5917,7  
Eksport – 1753,7  
Import – 4164,0



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 3276,7  
Eksport – 3017,4  
Import – 259,3



### Belarus Respublikasi

TSA – 808,1  
Eksport – 69,6  
Import – 738,5




### Tojikiston

TSA – 572,7  
Eksport – 428,1  
Import – 144,6



### Ozarbajjon

TSA – 543,2  
Eksport – 434,8  
Import – 108,4



### Moldova Respublikasi

TSA – 191,7  
Eksport – 191,7  
Import – 0,0



### Ukraina


TSA – 94,3  
Eksport – 51,1  
Import – 43,2




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**59,3 %**), Qirg'iz Respublikasi (**20,3 %**) hamda Qozog'iston (**11,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **22522,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **13729,8** ming AQSH dollari, import hajmi esa **8792,7** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'rishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **100** taga yetdi va ular tomonidan **53174,3** ming AQSH dollari qiymatini va (2022- yilning mos davriga nisbatan **17,3** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-fevral oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-fevral oylari yillar kesimida)

| XSST tarkibi  | ming AQSH dollari |                | O'zgarish sur'ati, % da |              | Umumiy hajmga nisbatan, % da |              |
|---|-------------------|----------------|-------------------------|--------------|------------------------------|--------------|
|   | 2022              | 2023           | 2022                    | 2023         | 2022                         | 2023         |
| <b>Jami eksport</b>   | <b>45345,0</b>    | <b>53174,3</b> | <b>162,5</b>            | <b>117,3</b> | <b>100,0</b>                 | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>  |                   |                |                         |              |                              |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                        | 7485,0            | 8971,6         | 2,4 m.                  | 119,9        | 16,5                         | 16,9         |
| Ichimliklar va tamaki   | 2,7               | -              | 108,0                   | -            | -                            | -            |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                       | 959,4             | 742,6          | 2,3 m.                  | 77,4         | 2,1                          | 1,4          |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 2499,6            | 5775,1         | 59,2                    | 2,3 m.       | 5,5                          | 10,9         |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar       | -                 | -              | -                       | -            | -                            | -            |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar                 | 6,2               | 23,7           | 62,0 m.                 | 3,8 m.       | -                            | 0,1          |
| Sanoat tovarlari  | 32842,4           | 35979,5        | 175,9                   | 109,6        | 72,4                         | 67,6         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari                          | 599,5             | 757,5          | 171,3 m.                | 126,4        | 1,3                          | 1,4          |
| Turli xil tayyor buyumlar   | 17,0              | 7,3            | 36,1                    | 42,9         | 0,1                          | -            |
| Boshqa tovarlar   | -                 | 271,1          | -                       | -            | -                            | 0,5          |
| Xizmatlar   | 933,2             | 645,9          | 72,9                    | 69,2         | 2,1                          | 1,2          |


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,8 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**67,6 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**16,9 %**) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**10,9 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga **14850,7** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **27,9 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar

2023- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, Polsha, Qirg'iz Respublikasi, Hindiston va Misr kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **78,3 %** ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-fevral oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral oylari yillar kesimida)*

| Davlatlar             | ming AQSH dollari |         | O'sish sur'ati, % da |         | Egallab turgan o'rni |      |
|-----------------------|-------------------|---------|----------------------|---------|----------------------|------|
|                       | 2022              | 2023    | 2022                 | 2023    | 2022                 | 2023 |
| Turkiya               | 15957,1           | 15421,9 | 2,1 m.               | 96,6    | 1                    | 1    |
| Rossiya Federatsiyasi | 7209,7            | 8812,5  | 2,7 m.               | 122,2   | 2                    | 2    |
| BAA                   | 297,7             | 5868,0  | 7,6 m.               | 19,7 m. | 14                   | 3    |
| Polsha                | 1482,6            | 3474,4  | 22,5 m.              | 2,3 m.  | 8                    | 4    |
| Qirg'iz Respublikasi  | 1583,3            | 3017,4  | 133,7                | 190,6   | 7                    | 5    |
| Hindiston             | 983,6             | 3043,1  | 153,1                | 3,1 m.  | 9                    | 6    |
| Misr                  | 486,9             | 2002,6  | 58,6                 | 4,1 m.  | 13                   | 7    |
| Pokiston              | 1772,6            | 1872,2  | 195,8                | 105,6   | 5                    | 8    |
| Vetnam                | 576,6             | 1785,0  | -                    | 3,1 m.  | 12                   | 9    |
| Qozog'iston           | 1638,0            | 1753,7  | 87,1                 | 107,1   | 6                    | 10   |
| XXR                   | 3690,8            | 1031,0  | 167,2                | 27,9    | 3                    | 11   |
| Marokash              | -                 | 899,6   | -                    | -       | -                    | 12   |
| Afg'oniston           | 2610,4            | 850,4   | 79,6                 | 32,6    | 4                    | 13   |
| Ozarbajjon            | 678,8             | 434,8   | -                    | 64,1    | 10                   | 14   |
| Tojikiston            | 95,5              | 428,1   | 5,3                  | 4,5 m.  | 17                   | 15   |
| Belgiya               | -                 | 296,1   | -                    | -       | -                    | 16   |
| Moldova Respublikasi  | 596,7             | 191,7   | 6,5 m.               | 32,1    | 11                   | 17   |
| Tunis                 | -                 | 215,0   | -                    | -       | -                    | 18   |
| Iroq                  | 117,9             | 94,5    | -                    | 80,2    | 16                   | 19   |
| Chexiya Respublikasi  | 169,4             | 94,6    | 70,5                 | 55,8    | 15                   | 20   |



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-fevral oylari)\*

|                             | Hajm<br>ming<br>AQSH<br>dollari | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Ulushi,<br>% da |
|-----------------------------|---------------------------------|----------------------------|-----------------|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>53174,3</b>                  | <b>117,3</b>               | <b>100,0</b>    |
| <i>hududlar:</i>            |                                 |                            |                 |
| G'uzor                      | 1479,0                          | 57,6                       | 2,8             |
| Dehqonobod                  | 4441,5                          | 5,1 m.                     | 8,4             |
| Qamashi                     | 1660,3                          | 38,3                       | 3,1             |
| Qarshi                      | 10435,9                         | 61,3                       | 19,6            |
| Koson                       | 3148,3                          | 76,8                       | 5,9             |
| Kitob                       | 1290,6                          | 127,6                      | 2,4             |
| Mirishkor                   | 1135,4                          | 168,5                      | 2,2             |
| Muborak                     | 1002,0                          | 69,1                       | 1,9             |
| Nishon                      | 6547,1                          | 10,7 m.                    | 12,3            |
| Kasbi                       | 15227,4                         | 4,0 m.                     | 28,6            |
| Ko'kdala                    | 487,4                           | -                          | 0,9             |
| Chiroqchi                   | 2283,4                          | 3,6 m.                     | 4,3             |
| Shahrisabz                  | 260,6                           | 20,2                       | 0,5             |
| Yakkabog'                   | 861,3                           | 52,8                       | 1,6             |
| Qarshi sh.                  | 2841,8                          | 58,4                       | 5,4             |
| Shahrisabz sh.              | 69,7                            | 28,4                       | 0,1             |
| Boshqalar                   | 2,6                             | 1,3                        | 0,0             |

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Kasbi

15227,4

Qarshi

10435,9

Nishon

6547,1

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Shahrisabz sh.

69,7

Shahrisabz

260,6

Ko'kdala

487,4

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **28,6 %** bilan **15227,4** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,1 %** bilan **69,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-fevral oylarida **67,4** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,9** barobarga yoki **1,9** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**38,8** %), Qozog'iston (**23,1** %), Pokiston (**15,0** %), hamda Afg'oniston (**9,3** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **5258,8** ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,9** % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **9,9** % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-fevral oylarida o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

|  |  |  |   |
|--|--|--|---|
| <p><b>Mevalar</b></p> <p>1751,2 ming AQSH dollari</p> <p>21,4 ming tonna</p> <p>105,4 % ↑</p>                  | <p><b>Dukkakli sabzavotlar</b></p> <p>1150,8 ming AQSH dollari</p> <p>9,2 ming tonna</p> <p>88,2 % ↓</p> | <p><b>Uzum quritilgan</b></p> <p>791,7 ming AQSH dollari</p> <p>7,1 ming tonna</p> <p>66,8 % ↓</p>                 | <p><b>Pomidor</b></p> <p>483,0 ming AQSH dollari</p> <p>5,0 ming tonna</p> <p>94,6 % ↓</p>                  |
| <p><b>Quritilgan sitrus mevalar</b></p> <p>192,5 ming AQSH dollari</p> <p>1,4 ming tonna</p> <p>3,1 m. % ↑</p> | <p><b>Bodring</b></p> <p>99,0 ming AQSH dollari</p> <p>1,2 ming tonna</p> <p>116,3 % ↑</p>               | <p><b>Boshqa quritilgan sabzavotlar</b></p> <p>207,2 ming AQSH dollari</p> <p>4,7 ming tonna</p> <p>2,5 m. % ↑</p> | <p><b>Har-xil turdagi karamlar</b></p> <p>123,5 ming AQSH dollari</p> <p>1,8 ming tonna</p> <p>44,6 % ↓</p> |





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-fevral oylari)

| Davlatlar   | Ming tonna | ming AQSH dollari | Ulushi, % da * |
|---|------------|-------------------|----------------|
|  Rossiya Federatsiyasi  | 1613,5     | 2040,3            | 38,8           |
|  Qozog'iston            | 2901,6     | 1215,0            | 23,1           |
|  Pokiston              | 321,0      | 789,3             | 15,0           |
|  Afg'oniston            | 696,6      | 486,4             | 9,3            |
|  Tojikiston             | 927,7      | 372,2             | 7,1            |
|  BAA                   | 67,0       | 111,0             | 2,1            |
|  Iroq                 | 68,0       | 94,5              | 1,8            |
|  Turkiya              | 44,0       | 53,4              | 1,0            |
|  Ozarbayjon           | 20,9       | 37,4              | 0,7            |
|  Jazoir               | 22,0       | 30,8              | 0,6            |
|  Belarus Respublikasi | 35,5       | 23,2              | 0,4            |
|  Boshqa davlatlar     | 21,0       | 5,3               | 0,1            |

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **38,8** % i), bu ko'rsatkich Belarus Respublikasi eksport hajmidan **97,0** barobar ko'p.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.






To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-fevral oylari yakuni bo‘yicha **35367,1 ming** AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **66,5 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **12,0 %** ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**84,3 %**), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**14,5 %**) asosiy ulushni egallagan.

### TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)

|  |                                   | 2022- yil      | 2023- yil      |
|--|-----------------------------------|----------------|----------------|
| <b>Jami</b>  |                                   | <b>31585,0</b> | <b>35367,1</b> |
|  | Ip kalava                         | 27447,1        | 29824,5        |
|  | Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari | 3450,4         | 5133,0         |
|  | Trikotaj mato                     | 144,4          | 107,5          |
|  | Gazlamalar                        | 543,1          | 302,1          |
|  | Paypoq mahsulotlari               | -              | -              |

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)



|   |                       | 2022- yil | 2023- yil | O‘shish sur‘ati, % da |
|---|-----------------------|-----------|-----------|-----------------------|
|    | Turkiya               | 15593,6   | 15347,9   | 98,4                  |
|    | Rossiya Federatsiyasi | 3635,0    | 5870,4    | 161,5                 |
|    | Polsha                | 1482,6    | 3356,2    | 2,3 m.                |
|    | Qirg‘iz Respublikasi  | 395,4     | 2209,0    | 5,6 m.                |
|    | Misr                  | 486,9     | 2002,6    | 4,1 m.                |
|    | Vetnam                | 576,6     | 1785,1    | 3,1 m.                |
|    | Eron Respublikasi     | 2076,8    | 1118,0    | 53,8                  |
|    | XXR                   | 3261,3    | 964,4     | 29,6                  |
|  | Marokash              | -         | 899,6     | -                     |
|  | Pokiston              | 1215,0    | 390,4     | 32,1                  |
|  | Qozog‘iston           | 436,9     | 344,2     | 78,8                  |
|  | Belgiya               | -         | 296,1     | -                     |
|  | Tunis                 | -         | 215,0     | -                     |
|  | Moldova Respublikasi  | 531,2     | 191,7     | 36,1                  |
|  | Boshqa davlatlar      | 1893,7    | 376,5     | 19,9                  |




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**43,4 % – 15347,9** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**16,6 % – 5870,4** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-fevral oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **645,9** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **30,8** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**47,2** %), transport (**32,4** %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**20,0** %) va safarlar (turizm) (**0,4** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi **2 9816,1** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **78,2 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**56,3 %**), mashinalar va transport asbob- uskunalari (**10,6 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**11,9 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-fevral oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8307,7** ming AQSH dollariga kamaydi va **2 9816,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **299,0** ming AQSH dollariga yetdi.




## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-fevral oylari holati)*

| XSST tarkibi  | ming AQSH dollari |                | O'sish sur'ati, % da |             | Umumiy hajmga nisbatan. % da |              |
|---|-------------------|----------------|----------------------|-------------|------------------------------|--------------|
|   | 2022              | 2023           | 2022                 | 2023        | 2022                         | 2023         |
| <b>Jami import</b>  | <b>38123,8</b>    | <b>29816,1</b> | <b>143,2</b>         | <b>78,2</b> | <b>100,0</b>                 | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>  |                   |                |                      |             |                              |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                        | 2177,7            | 2917,1         | 56,7                 | 134,0       | 5,7                          | 9,8          |
| Ichimliklar va tamaki   | -                 | -              | -                    | -           | -                            | -            |
| Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar                     | 355,9             | 333,6          | 100,4                | 93,7        | 0,9                          | 1,1          |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 1249,5            | 1939,4         | 157,4                | 155,2       | 3,3                          | 6,5          |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar       | 154,2             | -              | 5,3 m.               | -           | 0,4                          | -            |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar                 | 2170,8            | 3533,0         | 122,5                | 162,8       | 5,7                          | 11,9         |
| Sanoat tovarlari  | 26525,6           | 16785,7        | 178,5                | 63,3        | 69,6                         | 56,3         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari                          | 3381,7            | 3155,7         | 98,7                 | 93,3        | 8,9                          | 10,6         |
| Turli xil tayyor buyumlar   | 2104,9            | 844,2          | 136,2                | 40,1        | 5,5                          | 2,8          |
| Boshqa tovarlar   | 3,5               | 8,4            | 66,0                 | 2,4 m.      | -                            | -            |
| Xizmatlar   | -                 | 299,0          | -                    | -           | -                            | 1,0          |

2023- yil yanvar-fevral oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **30,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan (yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da) **1,4 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI



■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar

2023- yil yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyati **39** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Qozog'iston, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Koreya Respublikasi va Italiya) jami importning **81,7 %** ni tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-fevral oylari % da)





## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-fevral oylari holati)

| Davlatlar             | ming AQSH dollari |        | O'sish sur'ati, % da |         | Umumiy hajmdagi o'rni |      |
|-----------------------|-------------------|--------|----------------------|---------|-----------------------|------|
|                       | 2022              | 2023   | 2022                 | 2023    | 2022                  | 2023 |
| XXR                   | 12808,4           | 4123,6 | 146,5                | 32,2    | 1                     | 1    |
| Qozog'iston           | 2090,0            | 4164,0 | 68,0                 | 199,2   | 4                     | 2    |
| Turkiya               | 6088,3            | 4123,6 | 130,6                | 67,7    | 2                     | 3    |
| Rossiya Federatsiyasi | 3674,0            | 3630,9 | 103,6                | 98,8    | 3                     | 4    |
| Latviya               | -                 | 2583,3 | -                    | -       | -                     | 5    |
| Koreya Respublikasi   | 300,6             | 1435,0 | 50,1 m.              | 4,8 m.  | 11                    | 6    |
| Italiya               | 725,1             | 881,1  | 85,9                 | 121,5   | 8                     | 7    |
| Belarus Respublikasi  | 17,2              | 738,5  | 37,6                 | 42,9 m. | 19                    | 8    |
| Germaniya             | 786,4             | 630,5  | 59,3                 | 80,2    | 7                     | 9    |
| Shveysariya           | 159,1             | 492,1  | 8,4 m.               | 3,1 m.  | 15                    | 10   |
| Pokiston              | 83,9              | 455,9  | 5,1 m.               | 5,4 m.  | 18                    | 11   |
| Fransiya              | 136,0             | 439,7  | 4,4 m.               | 3,2 m.  | 17                    | 12   |
| Hindiston             | 589,9             | 421,0  | 5,8 m.               | 71,4    | 10                    | 13   |
| Qirg'iz Respublikasi  | 235,5             | 259,3  | 3,6 m.               | 110,1   | 12                    | 14   |
| AQSH                  | 180,2             | 276,4  | 3,0 m.               | 153,4   | 14                    | 15   |
| Kanada                | 197,2             | 231,4  | 28,5                 | 117,3   | 13                    | 16   |
| Yaponiya              | 1673,9            | 250,6  | 356,1 m.             | 15,0    | 6                     | 17   |
| Polsha                | 652,8             | 185,9  | 3,1 m.               | 28,5    | 9                     | 18   |
| Tojikiston            | 1781,8            | 144,6  | 8,6 m.               | 8,1     | 5                     | 19   |
| Ekvador               | 139,0             | 141,6  | 78,7                 | 101,9   | 16                    | 20   |





## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-fevral oylari)

|                             | Hajm<br>ming<br>AQSH<br>dollari | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Ulushi,<br>% da |
|-----------------------------|---------------------------------|----------------------------|-----------------|
| <b>Qashqadaryo viloyati</b> | <b>29816,1</b>                  | <b>78,2</b>                | <b>100,0</b>    |
| <i>hududlar:</i>            |                                 |                            |                 |
| G'uzor                      | 3260,0                          | 3,7 m.                     | 10,9            |
| Dehqonobod                  | 984,8                           | 121,9                      | 3,3             |
| Qamashi                     | 261,7                           | 96,9                       | 0,9             |
| Qarshi                      | 2346,9                          | 27,9                       | 7,9             |
| Koson                       | 193,9                           | 5,7                        | 0,7             |
| Kitob                       | 2219,4                          | 27,3                       | 7,4             |
| Mirishkor                   | 830,2                           | 7,1 m.                     | 2,8             |
| Muborak                     | 441,0                           | 144,7                      | 1,5             |
| Nishon                      | 2049,9                          | 5,1 m.                     | 6,9             |
| Kasbi                       | 1940,4                          | 48,0                       | 6,5             |
| Ko'kdala                    | 150,6                           | -                          | 0,5             |
| Chiroqchi                   | 184,8                           | 49,1                       | 0,6             |
| Shahrisabz                  | 12,8                            | 3,6                        | 0,1             |
| Yakkabog'                   | 5560,0                          | 5,3 m.                     | 18,6            |
| Qarshi sh.                  | 8423,1                          | 108,8                      | 28,2            |
| Shahrisabz sh.              | 949,6                           | 51,7                       | 3,2             |
| Boshqalar                   | 7,0                             | -                          | -               |

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 8423,1

Yakkabog' 5560,0

G'uzor 3260,0

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Shahrisabz 12,8

Ko'kdala 150,6

Chiroqchi 184,8

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **28,3** % bilan **8423,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz tumani **0,1** % bilan **12,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **3155,7** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **6,7** % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **10,6** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-fevral oylari)




2023- yil yanvar-fevral oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **226,0** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **2030,6** ming AQSH dollari (**64,3** %), Belarus Respublikasi - **410,7** ming AQSH dollari (**13,0** %) va Rossiya Federatsiyasi – **125,1** ming AQSH dollari (**4,0** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **16785,7** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **36,7** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **56,3** % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-fevral oylari ulushi, % da)

3917,7 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 23,3 %

3860,3 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 23,0 %

2497,4 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 14,9 %



Turkiya



XXR



Latviya

2067,9 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 12,3 %

1426,6 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 8,5 %



Rossiya  
Federasiyasi



Koreya  
Respublikasi




2023- yil yanvar-fevral oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9739,9** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Turkiya- **3917,7** ming AQSH dollari (**23,3** %), XXR - **3860,3** ming AQSH dollari (**23,0** %) va Latviya- **2497,4** ming AQSH dollari (**14,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-fevral oylari ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **299,0** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **1,0** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**100,0** %), ga tegishli bo'ldi.